

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Миришаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IQTISODIY-IJTIMOIIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE	
ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI	
MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING	
XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyevena	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	
IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN	
FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING	
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB	
CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ	
ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэльевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI	
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI	
INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY	
JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR	
TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY	
HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING	
SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadridin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYLLARIGA UYG'UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPAIYALARDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O'RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug'affarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O'rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI" TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko'ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOIYLLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYLLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPAIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA'MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Andijon davlat texnika instituti,

“Iqtisodiyot” kafedrası,

katta o‘qituvchi, PhD

E-mail: mallaboyev.anvarjon@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada xalqaro raqobatbardoshlikni baholash masalalari, ularning metodologik asoslari hamda xalqaro indekslar tizimi tahlil qilingan. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan ishlab chiqilgan Global raqobatbardoshlik indeksi (GRI), Xalqaro menejmentni rivojlantirish instituti (IMD)ning Jahon raqobatbardoshligi yilnomasi hamda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) ishlab chiqqan raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (CIP) mazmunan qiyosiy o‘rganilgan. Ushbu indekslar orqali mamlakat raqobatbardoshligini makroiqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, ta’lim, texnologiya va sanoat samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholash imkoniyatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda ushbu metodologik yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, global indeks, GRI, IMD, CIP, sanoat samaradorligi, iqtisodiy o‘sish, metodologiya.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы оценки международной конкурентоспособности и их методологические основы. Проведен сравнительный анализ основных международных индексов — Глобального индекса конкурентоспособности (GCI), разработанного Всемирным экономическим форумом, Всемирного ежегодника конкурентоспособности (IMD) и Индекса конкурентоспособности промышленного производства (CIP), подготовленного ЮНИДО. Показано, что данные индексы позволяют оценивать конкурентоспособность стран на основе макроэкономической стабильности, инфраструктуры, уровня образования, технологического развития и эффективности промышленности. Особое внимание уделено значению использования этих методологических подходов для повышения национальной конкурентоспособности.

Ключевые слова: конкурентоспособность, глобальный индекс, GCI, IMD, CIP, промышленная эффективность, экономический рост, методология.

Abstract

The article examines the issues of assessing international competitiveness and its methodological foundations. A comparative analysis of major international indices is conducted, including the Global Competitiveness Index (GCI) developed by the World Economic Forum, the World Competitiveness Yearbook (IMD), and the Competitive Industrial Performance Index (CIP) introduced by UNIDO. These indices highlight the key drivers of competitiveness such as macroeconomic stability, infrastructure,

education, technological advancement, and industrial performance. The study emphasizes the importance of applying these methodological approaches in enhancing national competitiveness and aligning with global economic development trends.

Keywords: competitiveness, global index, GCI, IMD, CIP, industrial performance, economic growth, methodology.

KIRISH

Iqtisodiyotni globallasuvi, kapital, texnologiya va ishchi kuchining xalqaro xususiyatga ega bo'lishi jahon mamlakatlari o'rtasida raqobat kurashini jadallashtirdi. Shuning uchun barcha mamlakatlar raqobatbardoshlik masalasiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Turli xalqaro institutlar va tashkilotlar tomonidan bir qator ko'rsatkichlar va mezonlar tizimi asosida raqobatbardoshlikni baholash maqsadida raqobatbardoshlik indeksleri ishlab chiqilmoqda. Raqobatbardoshlikning baholanishi jahon miqyosida mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional pozitsiyalarini nisbiy jihatdan taqqoslashga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy sohalariga oid xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi hamda parlament vakolatlarini kengaytirish maqsadida 2024-yil 19-iyunda qabul qilingan PF-91-son "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonlari mamlakatni xalqaro maydondagi mavqeyini yanada oshirish, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ixcham va natijaga yo'naltirilgan tizimni joriy qilish, yurtimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturlar sifatida qarash mumkin.

O'tgan davr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarda olib borilgan islohotlar natijasida bir qator xalqaro reytinglarda ijobiy ko'rsatkichlarga erishildi. Xususan, iqtisodiyotning liberallasuvi va qulay investitsiya muhitining yaratilishi natijasida Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'rnini 5 pog'onaga ko'tarilib, 178 ta mamlakat orasida 109-o'rinni egalladi. So'nggi 7 yilda esa O'zbekiston o'z ko'rsatkichlarini 57 pog'onaga yaxshilashga erishgan [1][2].

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilanishi milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi turmush farovonligini oshirish kabi maqsadlarni amalga oshirish jihatidan dolzarb ahamiyatga egadir. Bu esa ko'p jihatdan xalqaro raqobatbardoshlik masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni talab etadi. Ushbu jihatlarni inobatga olganda, maqolada xalqaro tashkilotlarning raqobatbardoshlikni baholash ko'rsatkichlarini aniqlash va baholashga bo'lgan yangicha yondashuvlarni ko'rib chiqish muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida xizmat qiladi

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro raqobatbardoshlik va uni baholash masalalari yuzasidan ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

M. Porter o‘zining *Millatlarning raqobatbardosh ustunligi* deb nomlangan tadqiqotlarida fanga “qiyosiy ustunlik” o‘rniga “raqobatbardosh ustunlik” tushunchasini kiritdi. Porter raqobatbardoshlikni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirdi va raqobatbardoshlik faqat arzon ishchi kuchi va xom ashyo bilan chegaralanmasdan, balki innovatsiya, texnologiya, talabning rivojlanganligi va milliy tarmoqlarning samaradorligi kabi ko‘plab omillar orqali ta‘minlanishini ilgari surgan [3].

Xaviyer Sala-i Martin 2005-yilda global raqobatbardoshlik indeksini hisoblash uslubiyotini *Yangi global raqobatbardoshlik indeksi* nomi bilan takomillashtirdi. Martin o‘zining yangi indeksida global raqobatbardoshlikni aniqlashda uslubiy jihatdan makro va mikro omillarning birgalikda ko‘rib chiqilishiga alohida e‘tibor qaratadi. Indeksiga ko‘ra, makroiqtisodiy raqobatbardoshlik makroiqtisodiy siyosat, ijtimoiy infratuzilma va siyosiy institutlar faoliyati orqali baholanar ekan, mikroiktisodiy raqobatbardoshlik asosan firmalar faoliyatining rivojlanganligi va biznes muhitining sifati ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi [4].

Raqobat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yuzasidan milliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim M.T. Yaxshiyeva hozirgi zamon raqobat nazariyalari, O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini shakllantirishning strategik maqsadlari va jahon bozoridagi raqobat usullaridan foydalanish mexanizmlarini tadqiq etgan [5].

Iqtisodchi olim Sh. Iskandarov global raqobatbardoshlik indeksini hisoblashning uslubiy jihatlarini o‘rgangan. U raqobat ustunligi nazariyasi, global raqobatbardoshlik indeksini hisoblash va xalqaro raqobatbardoshlikka ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan [6].

Iqtisodchi olim D. Salayev milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etgan. Global raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha mamlakatlar reytingi va milliy raqobatbardoshlikni oshirish masalalari tahlil qilingan [7].

Boshqa bir iqtisodchi olim A. Abdumo‘minov sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. U xalqaro tashkilotlar tomonidan sanoat raqobatbardoshligi indeksini hisoblash metodologiyasini va sanoat raqobatbardoshligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganib chiqqan [8].

Ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish natijalaridan kelib chiqqanda, xalqaro raqobatbardoshlikni baholash — bu kompleks jarayon bo‘lib, u makroiqtisodiy siyosatdan tortib sanoat korxonalaridagi ichki samaradorlikkacha qamrab oladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun esa ushbu nazariy va uslubiy tajribalardan samarali foydalanish milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim garovi hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, statistik tahlil qilish, taqqoslama tahlil va guruhlash usullaridan samarali foydalanilgan. Xalqaro raqobatbardoshlikni baholashda yagona universal yondashuv mavjud emas. Shu bois turli xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ko'p qirrali indeks va mezonlardan foydalaniladi.

Ushbu maqolada raqobatbardoshlikni baholashda qiyosiy tahlil usuli asosiy metodologik asos sifatida tanlangan bo'lib, Jahon iqtisodiy forumi (JIF), Xalqaro menejmentni rivojlantirish instituti (IMD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) kabi nufuzli xalqaro institutlar ishlab chiqqan indekslar mezonlari o'rganiladi va solishtiriladi.

Maqolada yuqoridagi xalqaro indekslar asosida qiyosiy tahlil o'tkaziladi. Buning uchun:

- Har bir indeks mezonlari va subindekslari tizimli ravishda o'rganiladi;
- O'zaro umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi;
- Milliy iqtisodiyot sharoitida qaysi mezonlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligi baholanadi.

Shu tariqa, maqolada xalqaro raqobatbardoshlikni baholashning turli metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi va ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishi uchun ahamiyatli jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlikni baholash masalasi doimiy ravishda kun tartibida bo'lgan va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan dolzarb mavzu hisoblanadi. Raqobatbardoshlikning umume'tirof etilgan ta'rif mavjud emasligi sababli, ilmiy adabiyotlarda raqobatbardoshlikni baholashda turli mezon va ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini, biznes samaradorligini, infratuzilmasini, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini, texnologik rivojlanishini va boshqa bir qator omillarni baholaydi. Ushbu omillarning har biri mamlakatning umumiy raqobatbardoshligini belgilovchi omillar hisoblanib, ularni rivojlantirish mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Qaysi omillarning mamlakat uchun yanada muhimroq ekanligi ushbu mamlakatning o'ziga xos shart-sharoitlari va oldiga qo'yilgan ustuvor maqsadlariga ko'ra belgilanadi. Shunga ko'ra, agar mamlakat texnologik jihatdan intensiv iqtisodiyotga o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u texnologik innovatsiyalar, fan va texnologiya infratuzilmasiga investitsiyalar kiritishga ustuvorlik berishi mumkin. Boshqa tomondan, agar mamlakat tabiiy resurslarga asoslangan iqtisodiyotga ega bo'lsa, u holda ushbu resurslarni samarali va barqaror shaklda boshqarishga e'tibor qaratishi mumkin. Natijada, xalqaro raqobatbardoshlikni aniqlash mamlakatga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, boshqa mamlakatlarga nisbatan ustun jihatlarni aniqlash va qaysi omillarga e'tibor qaratish, ularni rivojlantirish kerakligini hal qilishga yordam beradi.

Global raqobatbardoshlik indeksi (GRI) Jahon Iqtisodiy Forumi (JIF) tomonidan 1979-yildan boshlab muntazam ravishda yillik hisobot ko'rinishida taqdim qilib

kelinadi. 2005-yilda Xaviyer Sala-i Martin tomonidan GRI indeksi uslubiy jihatdan qayta ko'rib chiqilgan. Ushbu indeks oxirgi marta 2019-yilda 140 dan ortiq jahon mamlakatlari uchun e'lon qilingan.

GRI da xalqaro raqobatbardoshlik jihatidan muhim bo'lgan o'n ikkita rivojlanish yo'nalishlari uchta subindeks shaklida ifodalanadi va ularning har biri muayyan rivojlanish bosqichiga to'g'ri keladi. Uchta subindeksning chegaralariga to'g'ri kelgan mamlakatlar o'tish bosqichidagi mamlakatlar sifatida qabul qilingan va ushbu mamlakatlarning rivojlanish darajasiga mos ravishda qo'llaniladigan mezonlar ham o'zgartirilgan. Yuqoridagi uslubiyotga asoslangan holda xalqaro raqobatbardoshlikni aniqlash, muayyan mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini baholashda uning o'ziga xos va muhim bo'lgan rivojlanish yo'nalishlariga yanada ko'proq ahamiyat qaratilishiga imkon yaratgan (1-jadval).

1-jadval

Global raqobatbardoshlik subindekslarning tarkibi [9]

I	Bazis talablar	Xususiyati
1	Institutlar	Ishlab chiqarish omillari drayverligiga asoslangan iqtisodiyotlar uchun asosiy omillar
2	Infratuzilma	
3	Makroiqtisodiy barqarorlik	
4	Soliqni saqlash va boshlang'ich ta'lim	
II	Samardorlikni oshiruvchi ko'rsatkichlar	
5	Oliy ta'lim va kasb-xunar ta'limi	Samaradorlikka asoslangan iqtisodiyotlar uchun asosiy omillar
6	Tovar bozori samardorligi	
7	Mehnat bozori samardorligi	
8	Moliyaviy bozor samardorligi	
9	Texnologiya darajasi	
10	Bozor xajmi	
III	Innovatsion va diversifikatsiyalashuv omillari	
11	Biznes diversifikatsiyalashuvi	Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotlar uchun asosiy omillar
12	Innovatsiyalar	

Muhimlik darajasiga ko'ra har bir subindeks bir-biridan farqli baholanadi va yakuniy ravishda global raqobatbardoshlik indeksi keltirib chiqariladi (2-jadval).

2-jadval

Rivojlanish bosqichlariga ko'ra subindekslarning baholanishi [9]

Rivojlanish bosqichlari	Aholi jon boshiga YAIM (AQSH dollari)	Bazis talablar subindeksi	Samaradorlik ni oshiruvchi subindekslar	Innovatsiya va diversifikatsiya lashuv omillari subindeksi
1-bosqich: ishlab chiqarish omillari drayverligiga asoslangan iqtisodiyotlar	< 2.000	% 60	% 35	% 5
1-bosqichdan 2-bosqichga o'tish	2.000-3.000			
2- bosqich: samardorlikka asoslangan iqtisodiyotlar	3.000-9.000	% 40	% 50	% 10
2-bosqichdan 3-bosqichga o'tish	9.000-17.000			
3-bosqich: innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotlar	> 17.000	% 20	% 50	% 30

Xalqaro Menejmentni Rivojlantirish Instituti (IMD – International Institute for Management Development) tomonidan 1989-yildan buyon *Jahon raqobatbardoshligi yilnomasi* (World Competitiveness Yearbook) deb nomlangan raqobatbardoshlik hisoboti nashr etib kelinadi. Ushbu hisobot jahondagi eng muhim raqobatbardoshlik indekslaridan biri sifatida qabul qilingan (3-jadval).

3-jadval

Xalqaro Menejmentni Rivojlantirish Instituti tomonidan xalqaro raqobatbardoshlikni baholash mezonlari [10]

Asosiy ko'rsatkichlar	Mezonlar soni	Subko'rsatkichlar
Iqtisodiy ko'rsatkichlar: mamlakatning makroiqtisodiy holatini va xalqaro savdo darajasini baholaydi.	80 ta	-mahalliy iqtisodiyot -xalqaro savdo -xalqaro investitsiyalar -bandlik -inflyatsiya
Xukumat samaradorligi: davlat siyosatining biznes muhiti va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholaydi.	73 ta	-davlat moliyasi -fiskal siyosat -institutsonal asoslar -biznes qonunchiligi -ijtimoiy asoslar
Biznes samaradorligi: biznes sektorining mehnat unumdorligi va samaradorligini baholaydi.	70 ta	-samaradorlik -mehnat bozori -moliyaviy tizim -boshqaruv amaliyotlari -munosabat va qadriyatlar
Infratuzilma: umumiy infratuzilma holatini baholaydi.	108 ta	-asosiy infratuzilma -texnologik infratuzilma -ilmiy infratuzilma -sog'liqni saqlash va atrof-muhit -ta'lim

IMD xalqaro raqobatbardoshlikni mehnat unumdorligi va yalpi ichki mahsulot qiymatlariga ko'ra baholash to'g'ri emasligini ta'kidlaydi, chunki raqobatbardoshlik siyosiy, madaniy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liqdir. Raqobatbardoshlikni baholashda milliy raqobatbardoshlik va firma darajasidagi raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratiladi. Gap shundaki, agar mamlakatdagi firmalarning raqobatbardoshligi ortsa, ushbu mamlakatning milliy raqobatbardoshligi ham ortadi. Shunday ekan, mamlakat miqyosida raqobatbardoshlikni oshirish uchun dastlab firmalarning raqobatbardoshligini oshirish kerak bo'ladi.

Buning uchun firmalarning raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlovchi shart-sharoitlar yaratilishi, zaruriy institutsional tartibga solishlar amalga oshirilishi, raqobat uchun qulay muhit yaratilishi va samarali iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilishi kerak bo'ladi [11].

IMD ma'lumotlariga ko'ra, raqobatbardoshlikning asosiy omili mamlakatda yaratilgan yalpi qo'shimcha qiymat hajmi va uning barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Bunda mamlakatning o'ziga xos shart-sharoitlari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, IMDga ko'ra firmalarning raqobatbardoshligini aniq o'lchash mumkin emas. Shu sababli, dastlab raqobatbardoshlikka ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi, so'ngra ushbu omillar baholanadi. Ko'rsatkichlar raqamli ma'lumotlar (aniq statistik ma'lumotlar)ga hamda olingan anketa so'rovnomalari (boshqaruvchilar

fikri va baholashi asosida) natijalariga ko'ra baholanadi. Qabul qilingan mezonlar turli toifalar va ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar inflyatsiya, davlat qarzi, xorijiy investitsiyalar, ishsizlik darajasi, ta'lim darajasi, texnologik infratuzilma, hukumat tomonidan tartibga solish faoliyati va korrupsiya darajasi kabi keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi [12].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (UNIDO) tomonidan 2002/2003-yillardan boshlab Raqobatbardosh Sanoat Samaradorligi (CIP – Competitive Industrial Performance Index) indeksi orqali ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligi baholanadi. CIP indeksi mamlakatlar sanoat samaradorligini tahlil qilish va taqqoslash maqsadida aniqlanadi.

Sanoat raqobatbardoshligini baholash yuqori qo'shimcha qiymatga ega va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlarining mavjudligi, xalqaro va mahalliy bozorlardagi o'z mavqeyini saqlab qolish va mustahkamlash qobiliyati kabi mezonlarga asoslanadi. Baholashda raqobatbardoshlik va ishlab chiqaradigan sanoat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida ahamiyat qaratiladi. Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi mamlakatning sanoat ishlab chiqarish hajmi va eksport samaradorligi, sanoat salohiyati, ko'rsatkichlari va texnologik rivojlanish darajasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ishlab chiqaradigan sanoat sektorining rivojlanganligi, transformatsiya jarayonlari va tarkibiy o'zgarishlarning mavjudligi, sanoat siyosati samaradorligi hamda mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rni haqidagi keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi va sanoat raqobatining ko'p qirrali tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi [13].

Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi ishlab chiqarish va eksport hajmi, intensiv texnologik rivojlanish, mamlakatning jahon sanoatida yaratilgan qo'shimcha qiymat va eksportidagi ulushi deb nomlangan uchta asosiy ko'rsatkichdan tashkil topgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar 8 ta subko'rsatkichni o'z ichiga oladi. Indeksni tashkil etuvchi uchta asosiy ko'rsatkichning subko'rsatkichlari baholanib, bir xil nisbatda indeksga qo'shish orqali asosiy indeks aniqlanadi (4-jadval).

4-jadval

Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksini baholash ko'rsatkichlari¹ [14]

Asosiy ko'rsatkichlar	Subko'rsatkichlar
Ishlab chiqarish va eksport xajmi	1.MVApc: aholi jon boshiga ishlab chiqaradigan sanoatda yaratilgan qo'shimcha qiymat 2.MXpc:aholi jon boshiga ishlab chiqaradigan sanoat eksporti
Intensivlik texnologik rivojlanish	3.MHVAsh: ishlab chiqaradigan sanoatning intensivligi o'rta va yuqori texnologiyali guruhida yaratilgan qo'shimcha qiymat hajmining jami ishlab chiqaradigan sanoat yaratilgan qo'shimcha qiymat ichidagi ulushi 4.MVAsh:ishlab chiqaradigan sanoat qo'shimcha qiymatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi. Sanoatlashuv intensivligi: INDint=[MHVAsh+ MVAsh]/2

¹ Muallif ishlanmasi.Manba:UNIDO (2015).Vienna.Competitive Industrial Performance Report 2014.UNIDO.

Asosiy ko'rsatkichlar	Subko'rsatkichlar
	5.MHXsh: intensivligi o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqaradigan sanoat eksportining jami ishlab chiqaradigan sanoat eksporti ichidagi ulushi. 6.MXsh:ishlab chiqaradigan sanoat eksportining jami eksportdagi ulushi Sanoat eksporti sifati: $MXQual = [MHXsh + MXsh]/2$
Mamlakatning jahon sanoatida yaratilgan qo'shimcha qiymat va eksportidagi ulushi	7.LmWMVA:mamlakatning jahon ishlab chiqaradigan sanoati qo'shimcha qiymatiga ta'siri 8. LmWMT:mamlakatning jahon ishlab chiqaradigan sanoat savdosiga ta'siri

UNIDO tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar mamlakatlar uchun yuqori qo'shimcha qiymatga ega tovarlar ishlab chiqarish va eksportida erishilgan natijalarni baholash hamda global sanoat bozorlaridagi ishtirok miqyosi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish jihatidan dolzarb ahamiyatga egadir. Ushbu ma'lumotlar asosida milliy ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'ining tarkibi va sifati o'xshash tarkibiy evolyutsion yo'lidan borgan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatlarning sanoatlashuv jarayonlarini va rivojlanish strategiyalarini Sanoatni Barqaror Rivojlantirish (ISID) maqsadlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida maxsus siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rniida aytish mumkinki, xalqaro raqobatbardoshlikning baholanishi milliy ishlab chiqarish va eksport salohiyati hamda tarkibiy o'zgarishlar jarayoni haqida keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar yordamida milliy iqtisodiy siyosat va strategiyalarni yanada samaraliroq shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 02-iyun PF-6003-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida" gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4838762>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyun PF-91-son "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6975276>
3. M.E.Porter (2000). Rekabet strategisi, (Çev:Gülen Ulubilgen), Sistem Yayıncılık: İstanbul.
4. E.T.Ciğeroğlu (2023).İmalat sanayi sektöründe Türkiye'nin AB'ye ihracatının teknoloji yoğunluğuna göre analizi: panel veri yöntemi. Haziran 2023. Denizli. 36 s.

5. М.Т.Яхшиева.Ҳозирги замон рақобат назарияси:Ўқув қўлланма.- Т:ТДИУ,2019.
6. Ш.О.Искандаров. Глобал рақобатбардошлик индексини ҳисоблашнинг услубий жиҳатлари. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №1 2022 йил. 1-11 б.
7. Д.С.Салаев.Миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишлари.Иқтисод ва молия/Экономика и финансы.2018,5. 7-13 б.
8. А.А.Абдумўминов. Саноат корхоналари рақобатбардошлигини баҳолаш усуллари. Tashkent State Transport University.Volume 3. TSTU Conferense 1/2022. 186-194 б.
9. Sala-i Martin (2007) . “The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations”. Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum. p.3-40
10. F. Özgün. Küresel rekabet gücü: Türkiye imalat sanayi örneği.İstanbul 2017. 107 s.
11. IMD, World Competitiveness Yearbook 2014. Institute for Management Development Geneva and Lausanne.
12. Rosselet-McCauley (2008),“Methodolgy and Principles of Analysis”, IMD World Competitiveness Yearbook 2008.
13. UNIDO, (2019). Competitive Industrial Performance Report 2018, UNIDO, Vienna, 1-116.
14. UNIDO (2015).Vienna. Competitive Industrial Performance Report 2014. UNIDO,Vienna.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**